



Tuzini yeginu tuzlig'iga tupur-mi?

4-betda o'qing



Shifokorlarning noroziligi o'rganildi

5-betda o'qing

INSON va qonun

2025-YIL
18-MART
SESHANBA

№ 11
(1475)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

ADLIYA XABARI

YANGI O'ZBEKISTONDA "NNTlar BOG'I"

ADLIYA vazirligi tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonda ilk bor "Nodavlat notijorat tashkilotlari bog'i"ni yaratishga start berildi.

2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturi hamda "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida joriy yilning 15-mart kuni Adliya vazirligi tomonidan O'rmon xo'jaligi agentligi va nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokida ijtimoiy sheriklik asosida "Nodavlat notijorat tashkilotlari bog'i" ijtimoiy loyihasi amalga oshirildi.

Loyihaning dastlabki bosqichida 50 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari Toshkent viloyati Ohangaron tumani-da "Nodavlat notijorat tashkilotlari bog'i"ni tashkil etishda faol ishtirok etishdi. Mazkur bog' qariyb 2 gektar maydonni o'z ichiga olgan bo'lib, unda 2 mingdan ortiq iqlimga mos manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekish ishlari amalga oshirildi. Bog'da har bir tashkilot uchun alohida hudud belgilanib, ko'chatlar parvarishi doimiy nazoratga olindi.

Mamlakatimizda yashil maydonlarni kengaytirish maqsadida boshlangan mazkur ezgu loyiha doirasida respublikamizning qolgan barcha hududlarida ham "NNTlar bog'i"ni yaratish maqsad qilingan.

Adliya vazirligi axborot xizmati



HUQUQIY XABARNOMA

Kengash tashkil etiladi

PREZIDENT qaroriga muvofiq, quyidagi imkoniyatlarga ega "Tadbirkor ayollar" platformasi 2025-yil 1-iyulgacha ishga tushiriladi:

- ayol tadbirkorlarga xomashyo sotib olishga ko'maklashish;
- o'zaro kooperatsiyani kengaytirish va mahsulotlarni sotish uchun bozor topish;
- zarur mutaxassislarni izlash va ishga qabul qilish;
- loyihalar doirasida yuzaga kelayotgan muammolarini aniqlash va ularga yechim topish.

2025-yil 1-maydan "Hamkor tadbirkor" dasturi yo'lga qo'yiladi.

Joriy yil 1-avgustgacha Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida moliyaviy xizmatlar ko'rsatish strategiyasi tasdiqlanadi.

Yetakchi ishbilan ayollardan iborat Tadbirkor ayollar kengashi tashkil etiladi.

Garovsiz kredit beriladi

Joriy yilning 14-martida qabul qilingan "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, 2025-yilda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash;
- 250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish;
- 250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish;
- 50 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog'lomlashtirish hamda ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha motivatsion seminarlar tashkil etish.

"HAMROH" tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida 2025-yil 1-maydan:

- ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan xotin-qizlarga 100 mln so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Bitim tasdiqlandi

"Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-101-son, 14.03.2025-y.)ga ko'ra, Ozarbayjon, Qozog'iston va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida yashil energiyani rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to'g'risidagi Bitim tasdiqlandi.

Bitim 2024-yil 13-noyabrda Boku shahrida imzolangan.

Energetika vazirligi xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organ etib belgilandi.

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari mazkur xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin belgilangan tartibda uning qoidalarini amalga oshirish ustidan nazoratni ta'minlaydi.

@huquqiyaxborot

2 JARAYON

MA'MURIY ISLOHOTLAR DAVRIDA OLIY TA'LIM

MA'MURIY islohotlar davrida oliy ta'lim sohasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilab beradigan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasi bugungi kunda 42 foizni tashkil etmoqda. Bu raqam 2016-yilda 9 foizni tashkil etgan. 2017-yildagi 279,7 mingta oliy o'quv yurti bugungi kunda 1061,7 mingtaga yetgani yoki deyarli 4 barobarga ortgani oliy ta'limda bakalavr bosqichida 306 ta ta'lim yo'nalishi, magistraturada esa 625 ta mutaxassislik bo'yicha chuqur bilimli va malakali kadrlarni tayyorlashga zamin bo'lmoqda.



O'zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar oliy ta'lim va ta'lim tashkilotlarining ma'muriy islohotlar davrida rivojlanishi, bu boradagi mavjud muammolar, ularni hal etish yo'llari, ushbu mexanizmlarni takomillashtirish istiqbollari va sohada vujudga kelayotgan shu kabi munosabatlarni milliy, xorijiy tajriba asosida Prezidentning 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori baka-lavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ilg'or xorijiy tajriba hamda iqtisodiyotdagi soha, tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyoji asosida qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

Shunga asosan iqtisodiyot va moliya vazirligi idoralar bilan birgalikda iqtisodiyotning real tarmoqlari va sohalarida ta'lim yo'nalishlari, muta-

xassisliklar bo'yicha oliy ta'limotli kadrlarga bo'lgan talabni o'rgangan holda 4 yilga mo'ljallangan prognozni shakllantirib boradi.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlariga qabul jarayonida ta'lim shakllari bo'yicha bakalavrga nisbatan kunduzgi 66,9 foizni, sirtqi 25,8 foizni, kechki 5,8 foiz va masofaviy ta'lim 1,5 foizni tashkil qiladi. Bundan ko'rinaradiki, davlat o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun kerakli kadrlarga bo'lgan talabni oliy ta'lim tashkilotlari bilan kelishib, real holatdan kelib chiqib emas, balki barcha mutaxassisliklarga birdek kvota ajratilishi bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlariga kadrlar ehtiyojini mustaqil belgilash berilgan bo'lsa-da, amalda bu tartib ish-

lamaydi. Sababi, bu toifadagi oliy ta'lim tashkilotlariga ham talaba davlat buyurtmasi asosida qabul qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan hududlar va tarmoqlarning buyurtmalari asosida olib boriladi. Oliy ta'lim tashkilotlariga tavsiyalar esa real ehtiyojlardan kelib chiqib beriladi. Masalan, AQSHda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni "raqamlar asosida" hisoblash metodikasi orqali Mehnat statistikasi byurosi tomonidan 1997-yilda ishlab chiqilgan qo'llanma 10-15 yilga mo'ljallanadi va har ikki yilda yangilab boriladi. Qaysi sohaga kadrlar zarurligi aniqlanib, federal hukumatga taqdim etiladi, shu asosda oliy ta'lim tashkilotlariga turli grantlar ajratiladi.

Mamlakatimizda ham ushbu muammolarni hal etish va yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlardagi belgilangan maqsadlarga erishish uchun xalqaro tajribadan va iqtisodiyotning real holatidan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot institutlari bilan birgalikda aniq metod orqali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning 5-10 yillik prognozlarini ishlab chiqish zarur. Davlat granti asosidagi buyurtmalarni va o'qishga kirishdagi imtiyozlarni qisqartirib, qabul parametrlarini yo'nalishlar kesimida belgilash kerak. Ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida sirtqi ta'lim yo'nalishlariga qabulni qisqartirish, uning o'rniga sanoat sohasini rivojlantirish uchun bu yo'nalishga qabulni bosqichma-bosqich oshirib borish lozim.

Oliy ta'lim tashkilotlarining maqomini kuchaytirish ma'muriy-huquqiy munosabatda va ma'muriy islohotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasida, birinchi navbatda, ommaviy sohada faoliyat yuritadigan ijtimoiy institutlarning ochilishiga imkon beradi. Ularning roli davlat ta'lim siyosatida ularga yuklatilgan vazifalarning ahamiyatini ochib berish bilan belgilanadi.

O'zbekiston - 2030" strategiyasida va ma'muriy islohotlar davrida oliy ta'lim sohasini isloh qilish, oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy boshqaruvini takomillashtirish har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratishga yo'l ochadi.

Kozimbek G'OZIYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AYOLLAR UCHUN KATTA IMKONIYAT

PREZIDENTIMIZ tomonidan joriy etilgan yangi tizim - "Ayollar daftari"dan ko'zlangan maqsad ayollarning jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish va mustahkamlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, o'qitish va kasb-hunar o'rgatish, shuningdek, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini bartaraf etishdan iborat.

"Ayollar daftari"ga 30 yoshdan oshgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand, boquvchisi bo'lmagan yoki boquvchisini yo'qotgan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, ruhiy kasallikka chalingan, doimiy daromad manbayiga ega bo'lmagan, bedarak yo'qolgan (sud qaroriga asosan) ehtiyojmand xotin-qizlar, shuningdek, nikohi bekor qilingan xotin-qizlar va yolg'iz onalar (FHDY organlarining ma'lumotnomasi asosida), ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga ehtiyoji bor xotin-qizlar, mehnatga layoqatsiz, o'zgalar parvarishiga, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga ehtiyojmand xotin-qizlar, uy-joyga muhtoj hamda qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud xotin-qizlar kiritiladi.

Ayni paytda "Ayollar daftari"ga kiritilgan opasigillarimizni ta'limning magistratura bosqichida grant asosida yoki kasb-hunar o'rganishlarida bepul o'qitish yo'lga qo'yilgan. Tadbirkorlik qilish istagidagi ayollarga hokim yordamchisining tavsiyasi asosida imtiyozli kreditlar ajratiladi.



Bunda xotin-qizlarning ehtiyojlari, qiziqishlari, "kredit tarixi", ehtiyojmandlik darajasi va boshqa masalalarni sinchkovlik bilan o'rganadi. Ayollarda mavjud ehtiyojmandlikni bartaraf etish maqsadida "Biznes ayollar" dasturi qabul qilindi. Buning uchun esa jami 8 trillion so'm yo'naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi.

Statistik ma'lumotlar yildan-yilga ehtiyojmand va nogiron ayollarning turmush tarzi yaxshilanib borayotganligidan darak bermoqda. Jamiyatimizda minglab ayollar ushbu daftarga kiritilgandan keyin, tadbirkorlikni yo'lga qo'yidilar. Masalan, ularning bandligini ta'minlash maqsadida issiqxonalar qurib berildi. Ba'zilariga tikuvchilik bilan shug'ullanishi uchun tikuv mashinalari topshirildi. Hozirda ushbu ayollar faqat o'zlari ishlabgina qolmay, boshqa ayol-qizlarning ham bandligini ta'minlamoqda.

Shunidek, nogironligi bo'lgan va tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ayollarga bir martalik moddiy yordamlar hamda davolanishi uchun sharoitlar yaratilgan. Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga ijara kompensatsiyasi to'lab berilmoqda. Nafaqat uy-joylar qurib berilmoqda, balki sharoiti og'ir, boquvchisini yo'qotgan ayollarning uyini ham ta'mirlashga yordam ko'rsatilayotir.

Amaldagi tartibga muvofiq, tikuv mashinalariga ega bo'lgan yoki issiqxonalaridan daromad ola boshlagan ayollar "Ayollar daftari"dan chiqariladi. Bundan tashqari, ayollar to'liq davlat ta'minotiga olinganda, o'z arizasiga ko'ra, "Ayollar daftari"ga noqonuniy kiritilgani aniqlanganda, boshqa davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketganda, sudning ozodlikdan mahrum etishni nazarda tutuvchi hukmi qonuniy kuchga kirganda, shaxs vafot etgan taqdirda yoki sud qarori asosida bedarak yo'qolgan deb topilganda "Ayollar daftari"dan chiqarilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Ayollar daftari"ning joriy etilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga katta imkoniyat yaratdi. Taklifimiz - tizim samarali ishlashi uchun ma'lumotlar bazasiga kiritiladigan ayollar ro'yxati shakllantirilgandan keyin tegishli nazorat o'rnatilsa, ayniqsa, olis qishloqlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarning muammolarini o'rganish bo'yicha ma'sullar ko'paytirilsa, yanada yaxshi bo'lardi.

Anbaroy JUMABOYEVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi

“MADAD” – MASLAHATCHI 3



Savollarga “Madad” NNT Yangiqo'rg'on tuman
huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi

Muzaffar TO'XTASINOV
javob berdi

NNTlarni tugatishning qonuniy tartibi qanday?

– QANDAY holatlarda nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati to'xtatib qo'yiladi?

– “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 34-moddasiga asosan nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchiligini buzgan taqdirda sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilik buzilgan, shuningdek ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir etilgan taqdirda prokuratura organlari yoki adliya organlari ko'rsatilgan qoidabuzarliklar to'g'risida mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organlariga taqdimnoma kiritadi hamda bu qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati prokuratura va adliya organlarining taqdimnomasi asosida sudning qarori bilan olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining hududida favqulodda holat joriy etilgan taqdirda nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Mazkur qonunning 36-moddasiga asosan nodavlat notijorat tashkilotini tugatish uning yuqori organi qaroriga binoan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) yoki nodavlat notijorat tashkilotini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan organ davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi adliya organi bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk tashkilot qatnashchilari (a'zolari), shuningdek rahbar organlarning a'zolari yoki nodavlat notijorat tashkilotlarining xodimlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas hamda undan belgilangan tartibda foydalaniladi.



To'lov miqdorini kim belgilaydi?

– Talabalar turar joyi uchun oylik to'lov miqdori ni kim belgilaydi?

– Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar-joy

bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalarini talabalar turar-joyiga joylashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti”ga asosan talabani talabalar turar-joyiga joylashtirish oliy ta'lim muassasasi va ariza beruvchi o'rtasida shartnoma tuzish orqali rasmiylashtiriladi. Bunda shartnoma oliy ta'lim muassasasi to'lovni to'lamagan taqdirda, yo'llanma bilan birgalikda shartnoma va birinchi oy uchun to'lov topshiriqnomasi avtomatik ravishda shakllantiriladi. Talaba yo'llanma shakllangandan so'ng 10 ish kuni mobaynida oliy ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzmasa yoki talabalar turar-joyi uchun dastlabki oylik to'lovni to'lamagan taqdirda, yo'llanma bekor qilinadi.

Talabalar turar-joyi uchun oylik to'lov miqdori va muddatlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi hamda shartnomada aks ettiriladi.

Talabalarni talabalar turar-joyiga joylashtirish bo'yicha davlat xizmati bepul ko'rsatiladi.



O'qishni ko'chirish mumkinmi?

– O'zim davlat tashkilotida ishlayman. Farzandimiz Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktabda o'qiydi. Ish joyimdagi rotatsiya sababli meni boshqa viloyat hududiga ishga jo'natishyapti. Farzandimizning o'qishini ko'chirish masalasi qanday bo'ladi, deb o'ylab qoldim. Shuning qonuniy tartibini tushuntirib bersangiz?

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi qarori bilan tasdiqlangan “Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar to'g'risida”gi Nizomga asosan ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim jarayoni Prezident ta'lim muassasalari agentligi tomonidan tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari asosida umumiy o'rta ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan hamda Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejalari va ta'lim dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim aniq fanlar yo'nalishi bo'yicha 5–11-sinflar, tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha 7–11-sinflar hajmida amalga oshiriladi. Har bir sinfdagi o'quvchilar soni 24 nafardan ortiq bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quvchilarni qabul qilishni aniq va tabiiy fanlar, ingliz tili fani hamda mantiqiy fikrlash bo'yicha o'tkaziladigan kirish imtihonlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari davlat tashkilotlarida ishlaydigan ota-onasining ish joyi bitta hududdan boshqa hududga o'zgargan taqdirda, o'sha hududdagi ixtisoslashtirilgan maktabda bo'sh o'rin mavjud bo'lganda o'quvchining o'qishini ko'chirishga ruxsat etiladi.



Nogironlik qanday belgilanadi?

– Nogironlikni belgilashning qonuniy talablari to'g'risida ma'lumot bersangiz?

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagi “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarida ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan fuqaroni nogironligi bo'lgan shaxs yoki o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarni nogironligi bo'lgan bola deb topish Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza natijalari bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan fuqaroga – nogironlik guruhi, uning belgilanishi sababi va muddatlari, o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga esa – qayta tekshiruvdan o'tish muddati bilan – “Nogironligi bo'lgan bola” toifasi belgilanadi.

Fuqarolarni ko'rikdan o'tkazishda tibbiyot odob-axloqiga va deontologiyasiga amal qilinadi.

Fuqaroni ko'rikdan o'tkazish doimiy ro'yxatda turgan hududga xizmat ko'rsatuvchi TIEK tomonidan amalga oshiriladi.

TIEKda fuqarolarni ko'rikdan o'tkazish bepul amalga oshiriladi.

TIEKda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan xorijiy davlat fuqarolari va tibbiyot muassasalarining yo'llanmasiga ega bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ko'rikdan o'tkaziladi.

Nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan shaxslar klinik – funksional ma'lumotlarni olishga doir qo'shimcha tekshiruvlarsiz ular nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganda, nogironlik muddatsiz davrga belgilanadi.

Bunday holatlarda 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda nogironlik 18 yoshga to'lgungacha bo'lgan muddatga belgilanadi.

Nogironlik belgilangan taqdirda, hujjatlar TIEK tomonidan qabul qilib olingan sana nogironlikning boshlanishi hisoblanadi.

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

ISHI BITGAN BUYURTMACHI PUDRATCHINI SARSON

QILISHI KERAKMI?

☐ **QORAQALPOG'ISTON** Respublikasi Adliya vazirligiga "Nukus Ildiyar qurilish" MCHJ direktori I. Utegenov Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan shartnomaga asosan yuzaga kelgan qarzdorlik to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'rab murojaat qilgan.

Murojaat o'rganilganda, taraflar o'rtasida 2022-yil 9-iyunda 1-sonli pudrat shartnomasi tuzilgani aniqlandi. Shartnomaning 2-bandida pudratchi Nukus davlat pedagogika instituti hududida 90 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasi binosi qurilishi ishlarini bajarish, jihozlarni o'rnatish, foydalanishga topshirish majburiyatini, buyurtmachi esa, qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini olgan.



Taqdim etilgan hujjatlarga ko'ra, 2024-yil 7-iyun holatiga buyurtmachi tomonidan 214 million 477 ming 199,46 so'm pul mablag'i to'lab berilmagani ma'lum bo'ldi.

Shartnomaning 20-bandida joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilganidan keyin, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvalariga muvofiq obyektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 95 foizi doirasida amalga oshirilishi, 5 foizi

esa bir yillik kafolat muddati tamom bo'lganidan keyin, tegishli hujjatlar taqdim qilinganidan so'ng amalga oshirilishi belgilangan.

Ushbu obyektlarni foydalanishga qabul qilish haqidagi davlat qabul hay'atining dalolatnomasi 2023-yil 17-aprelda rasmiylashtirilgan.

Biroq, buyurtmachi tomonidan ishlar qabul qilib olinganiga bir yillik kafolat muddati o'tganiga qaramasdan, pudratchiga bajarilgan ishlar uchun qolib ketgan 214 million so'mdan ortiq qarzdorlik to'lab berilmagan.

Shartnomaning 64-bandida buyurtmachi pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'lashi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmasligi belgilangan.

"Nukus Ildiyar qurilish" MCHJ direktori I. Utegenovning manfaatini ko'zlab Nukus davlat pedagogika institutidan yuzaga kelgan qarzdorlikni undirish bo'yicha Nukus tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan tadbirkor foydasiga 214 million 447 ming 119,96 so'm asosiy qarz va 15 million 100 ming so'm penya undirib berildi.

Aysanem ABDIKADIROVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

TUZINI YEGINU TUZLIG'IGA TUPUR-MI?

☐ **"MS" MCHJ** rahbari Yunusobod tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan qarzdorlik to'lanmasdan kelinayotganidan norozi bo'lib, qarzni undirish yuzasidan tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Ma'lum bo'lishicha, "MS" MCHJ, ya'ni autosorser va buyurtmachi – tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi o'rtasida buyurtmachi tasarrufidagi 255-, 288-, 417-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bir kunda 3 mahal (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik) haftada 5 kun ovqatlantirish bo'yicha 2022-yil 5-yanvarda shartnoma imzolangan.

Autosorser tomonidan 2022-yil 5-yanvardagi shartnomaga ko'ra, 2 milliard 684 million 989 ming 512,25 so'm miqdoridagi ishlar bajarilgan bo'lsa-da, ammo buyurtmachi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan qarz shu kunga qadar to'lab berilmagan.

Tadbirkor manfaatida Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga kiritilgan da'vo



arizasi qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan, tadbirkor foydasiga 2,7 milliard so'mga yaqin mablag' undirilishi ta'minlandi.

Alisher URUNOV,
Yunusobod tuman adliya
bo'limi boshlig'i

SO'RAGAN EDINGIZ

KELISHUVGA BOG'LIQ

☐ **ISH haqi saqlanmaydigan ta'til deganda xodimning ish o'rni (lavozimi) saqlanib qolgan holda haq to'lanmaydigan ta'til tushuniladi.**

Xodimning yozma arizasiga ko'ra, unga ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkin bo'lib, uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi, lekin u o'n ikki oylik davr mobaynida jami uch oydan ortiq bo'lmasligi kerak. Demak, ish haqi saqlanmaydigan ta'til xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga bog'liq.

Shuningdek, xodimning xohishiga ko'ra, ish haqi saqlanmaydigan ta'til quyidagilar majburiy tartibda beriladi:

1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyoz bo'yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga, I va II guruh no-

gironligi bo'lgan shaxslarga, ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolani haqiqatda parvarishlayotgan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga), buvisiga, bobosiga yoki boshqa qarindoshiga, o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq nafar bolani yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onasining biriga (ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxsga) – har yili o'n to'rt kalendar kungacha beriladi.

Qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa ayrim xodimlarga ham berilishi mumkin.

Abduvohid HAKIMOV,
Buvayda tuman adliya bo'limi yuridik
xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

NIKOH SHARTNOMASINING SIZ BILMAGAN AFZALLIGI

☐ **NIKOH** shartnomasining yana bir afzalligi, u o'zida nafaqat er-xotinning mol-mulkini vujudga keltirishi yoki uning huquqiy tartibini o'zgartirishi, shu bilan birga, er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berishini tartibga solishini ham aks ettiradi. Shu bois, nikoh shartnomasi nafaqat mulkiy nizolarni hal qilishga, balki nikohni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Nikoh shartnomasi nikohdan o'tuvchilar va nikohdagi er-xotin o'rtasida tuziladi. Shartnoma nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan bo'lsa, Oila kodeksining 30-moddasiga asosan nikoh FHDY organlarida ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Tomonlar oila daromadlari va xarajatlarini taqsimlash bo'yicha huquq va majburiyatlarini nikoh shartnomasida belgilab qo'yishlari mumkin. Bu qoida doimiy ish haqiga ham, kundalik xarajatlarga ham, aytaylik, birgalikdagi mol-mulk tarkibiga kiruvchi narsalarni saqlash va ta'mirlash, bolalarni o'qitish bilan bog'liq sarf-xarajatlarga ham tegishli. Shuningdek, er-xotin zarurat tug'ilganda bir-birlarini pul bilan ta'minlab turish shartlarini oldindan kelishib olishlari ham mumkin. Bunday shartlar Oila kodeksining 17-bobi talablariga mos bo'lishi kerak. Xuddi shuningdek, tomonlardan birining boshqasiga moddiy ta'minot uchun aliment to'lash tartibi va miqdori aliment to'lash to'g'risidagi maxsus kelishuv bilan belgilanishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – tomonlar sud tomonidan nikohdan ajratilganda, ulardan har biriga topshiriladigan mol-mulkdagi ulushni o'zaro kelishuvda belgilash huquqiga ega. Buning afzalligi shundaki, nikoh davrida er-xotindan biri uy-ro'zg'or yumushlari va bolalarga qarash bilan mashg'ul bo'lib, daromad orttira olmaydi. Bunday holatda taraflar nikohdan ajratilgandan keyin ushbu taraf tegishli moddiy ta'minotsiz qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin.

Kodeksning 32-moddasiga muvofiq nikoh buzilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh buzilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno.

Nikoh shartnomasi istalgan vaqtda o'zgartirilishi, to'ldirilishi va bekor qilinishi mumkin. Lekin uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi to'g'risida er-xotin o'rtasidagi kelishuv yozma shaklda bo'lishi va notarial tartibda tasdiqlanishi kerak. Nikoh shartnomasidan bir tomonlama voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Ahmadali ISAQOV,
Payariq tuman adliya bo'limi 1-son
FHDY bo'limi 1-toifali inspektori



KREDITNI BOSHQA SHAXSGA O'TKAZSA BO'LADIMI?



TUNGI CHIROQLAR HAQQI-CHI?

QORAQALPOG'ISTON Respublikasi Adliya vazirligiga "Nukus elektromontaj" MCHJ direktori S. Nuratdinov murojaat qilib, Chimboy tuman yo'llardan foydalanish davlat tashkiloti tomonidan shartnomaga asosan yuzaga kelgan qarzdorlik to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'ragan.

O'rganishga ko'ra, taraflar o'rtasida 2021-yil 5-mayda 20-sonli pudrat shartnomasi tuzilgan. Shuningdek, 2024-yil 12-yanvardagi qo'shimcha kelishuv shartnomasiga asosan, MCHJ tomonidan "Nukus-Chimboy-Taxtakopir" avtomobil yo'li"da tungi yoritish chiroqlarini elektromontaj qilish ishlari olib borilgan.

Shartnoma bo'yicha qilingan ishlar hajmi 2024-yil 30-avgust holatiga 243 million 431 ming 447 so'mni



tashkil etib, tomonlar o'rtasida hisob-fakturalari tasdiqlangan. Lekin tuman yo'llardan foydalanish davlat tash-

kiloti tomonidan 217 million 36 ming 707 so'm mablag' to'lab berilmagan.

Vaholanki, Fuqarolik kodeksining 631-moddasi birinchi qismiga asosan, pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binonan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Bundan tashqari, kodeksning 638-moddasi birinchi qismiga asosan, agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to'lash

nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ish kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachining roziligi bilan muddatidan oldin bajarib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to'lashi shart.

"Nukus elektromontaj" MCHJ direktori S. Nuratdinovning manfaatini ko'zlab, Chimboy tuman yo'llardan foydalanish davlat tashkilotidan yuzaga kelgan qarzdorlikni undirish bo'yicha Chimboy tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan tadbirkorning foydasiga 217 million so'mdan ortiq qarz undirib berildi.

Taxir MAXAMATDINOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

HAVODA QOLGAN 20 YILLIK ISH STAJI

FUQARO M.Z. Yunusobod tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, 1979 – 1998-yillar oralig'idagi mehnat faoliyatini Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limi tomonidan yoshga doir pensiya tayinlashda inobatga olinmayotganini bildirdi.



O'rganish jarayonida fuqaroning mehnat daftarchasi yo'qolgani sababli pensiya tayinlashda inobatga olinmayotgan ish stajini mehnat daftarchasi orqali aniqlash imkonini mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

Fuqaro manfaatida tuman davlat xizmatlari markazi orqali tegishli arxiv hujjatlari yig'ilib, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limining fuqaroga nisbatan yoshga doir pensiya tayinlashda ish stajini inobatga olmagan harakatlarini haqiqiy emas, deb topish va ushbu davrni yoshga doir pensiya tayinlashda inobatga olish majburiyatini yuklash to'g'risida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga ariza kiritildi.

Sud tomonidan fuqaro manfaatida hal qiluv qarori qabul qilindi. Pensiya tayinlashda hisobga olinmagan salkam 20 yillik ish staji inobatga olinishiga erishildi.

Javohir JO'RAYEV,
Toshkent shahar adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

SHIFOKORLARNING NOROZILIGI O'RGANILDI

FUQARO X.Q. va D.D.larning Respublika tibbiy yordam markazi Toshkent shahar filiali tomonidan salohiyatli yosh shifokorlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan maxsus ustama puli to'lanmaganidan norozi bo'lib, Toshkent shahar adliya boshqarmasiga qilgan murojaati o'rganildi.

O'rganish jarayonida xodimlarga haqiqatan ham maxsus ustama puli to'lanmagani ma'lum bo'ldi.

Xususan, Prezidentning 2022-yil 17-maydagi "Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, 2022-yil 1-iyundan boshlab tibbiyot muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining 75 foizi guruhidan qat'i nazar barcha xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi, shuningdek, yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha maxsus oylik ustama berilishi ko'rsatilgan.

2023-yil 16-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan "Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish

va rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomning 13-14-bandlarida maxsus komissiyaning tegishli qarori asosida qabul qilingan tibbiyot muassasasi rahbarining buyrug'iga muvofiq yangi ish boshlagan tibbiy oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga ishga qabul qilingan kundan boshlab, birinchi uch yillik mehnat faoliyati uchun oylik ish haqi to'lovlariga har oyda birinchi yil uchun – 1 million so'm; ikkinchi yil uchun – 750 ming so'm; uchinchi yil uchun – 500 ming so'mdan maxsus oylik ustamar qo'shimcha tarzda to'lanishi qat'iy belgilangan.

Adliya boshqarmasi tomonidan yangi ish boshlagan tibbiyot oliygohi bitiruvchilari Q.X. hamda D.D.larning manfaatini ko'zlab, to'lanmagan maxsus ustama va kompensatsiya pullarini undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning hal qiluv qaroriga asosan ish beruvchi tashkilot tomonidan yangi ish boshlagan shifokorlarning 84 million 467 ming so'm ustama va kompensatsiya puli to'lab berilishi ta'minlandi.

Alisher NEKOV,
Toshkent shahar adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

QARZDORLIK BEKOR QILINDI

QORAQALPOG'ISTON Respublikasi Adliya vazirligiga "Alko mir market" MCHJ rahbari Taxtakopir tuman filialidagi alkogol mahsulotlarini chakana sotish bo'yicha 2024-yil fevral-may oylariga hisoblangan qarzdorlikni bekor qilishda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan.

O'rganish davomida, MCHJ tomonidan litsenziyani to'xtatib turish bo'yicha elektron tarzda murojaat qilinib, O'zbekiston Respublikasi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartibi to'g'risida"gi qonunning 32-moddasiga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining qaroriga muvofiq 6 oy muddatga, 2024-yil 16-yanvardan 16-iyulgacha vaqtincha to'xtatib turilgani aniqlandi.

Litsenziya vaqtincha to'xtatib turilganiga qaramasdan, soliq organi tomonidan "Alko mir market" MCHJ Taxtakopir tuman filialiga alkogol mahsu-

lotlarini chakana sotish bo'yicha 2024-yil fevral-may oylariga 1 million 200 ming so'm qarzdorlik hisoblangan.

Soliq kodeksining 460-moddasi 5-bandida alkogol mahsulotlarini chakana sotish faoliyati to'xtatib turilganda yoki tugatilganda yig'imni hisoblab chiqarish keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to'xtatib turilishi belgilangan.

Shu sababli, Adliya vazirligi tomonidan murojaatda ko'rsatilgan qarzdorlikni bekor qilish choralari ko'rish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi soliq boshqarmasiga taqdimnoma kiritildi. Natijada MCHJning ortiqcha hisoblangan qarzdorligi bekor qilindi.

Saginbay KAMALOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

6 TALQIN



XODIM BIR YILDA IKKI MARTA MEHNAT TA'TILIGA CHIQISHI MUMKINMI?



– OILAVIY nizolarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan "Oila sudyalari" tashkil etildi. Bugun sudlar oilani mustahkamlash, nizodagi er-xotinini yarashtirish borasida qanday faoliyat olib borayapti?

– Mamlakatimizda oilaviy qadriyatlarini yanada mustahkamlash, ke-lajak avlodni sog'lom oilalarda tarbiyalash, oilaviy munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda sudlar zimmasiga ham alohida vazifa va mas'uliyat yuklatildi. Unga muvofiq, 2024-yil 1-fevraldan mavjud shtat birliklari doirasida tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar, Namangan tumanlararo va Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudlarining ikki nafardan sudyasi oilaviy nizolarni ko'rish bo'yicha ixtisoslashtirilgan holda ushbu sudlarda "Oila sudyalari"ni tashkil etish belgilandi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda boshqa fuqaroviy-huquqiy munosabatlar qatorida oilaviy-huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ko'plab nizolar ko'riladi. Jumladan, nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas deb topish, otalikni belgilash va aliment undirish, shuningdek, bola tarbiyasi bilan bog'liq nizolar.

Oilaviy nizolarning sudlar tomonidan ko'rib chiqilishida, faqatgina ma'lum bir tarafga majburiyat yuklashdan tashqari, taraflarni yarashtirish va oilalarni mustahkamlash bo'yicha keng tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlarida faollar ishtirokida sayyor qabullar o'tkazilishi, sayyor sud va davra suhbatlarining tashkil etilishi, har bir oilaning mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan e'tibor, albatta.

– **Bugungi kunda oilaviy ajrimlar dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Ayting-chi, oilada nizoli holatlar, buning oqibatida ajralishlar ro'y berayotganining asosiy sabablari nimada?**

– Oilaviy ajrimlarning oqibatlari o'rganilganda, oilalarning ajralib ketishiga moddiy yetishmovchilik, uchinchi shaxs aralashuvi, befarzandlik, xiyonat, uzoq vaqt birga yashamaslik, o'zaro bir-birini tushunmaslik sabab bo'layotgani oydinlashdi.

Qolaversa, ajrashish holatlari oilalardagi kelishmovchiliklar, fe'l-atvorining to'g'ri kelmasligi, er yoki xotin-

"OILA SUDYALARI" OILANI MUSTAHKAMLASHGA QANDAY YORDAM BERADI?



ning kasalligi, achinarlisi, ayrim yigitlarning ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi natijasida kelib chiqmoqda.

– **Ajrashgan oilalarda bola ota yoki onaning tarbiyasidan chetda qoladi. Bundan tashqari, bolalarning ta'minoti va ayollarning turar-joy muammolari ham paydo bo'ladi. Bunday muammoli holatlar sud tomonidan qanday hal qilinmoqda?**

– Nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Mol-mulkni bo'lish uchinchi shaxslarning manfaatiga daxldor bo'lgan hollarda sud mol-mulkni bo'lish talabini alohida ish yuritish uchun ajratadi.

Shuningdek, mulk masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, er va xotin birgalikda orttirilgan mulklarini umumiy mulk deb topish talabi bilan sudga murojaat etishga haqli.

Nikoh davomida olingan mol-mulk er va xotinning umumiy mulki hisoblanadi. Xususan, bunday mulk sirasiga quyidagilar: – mehnat va tadbirkorlik faoliyatidan, shuningdek, intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlar; – pensiya, nafaqa, shuningdek, moddiy yordam va kompensatsiya summolari (masalan, moddiy yordam, mayib bo'lish yoki salomatligiga yetgan zarar uchun to'langan summa va boshqalar) kiradi.

Er-xotinning umumiy puliga olingan ko'char va ko'chmas ashyolar,

qimmatbaho qog'ozlar, paylar (aksiyalar), omonatlar, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda boshqa har qanday mol-mulkleri, er yoki xotindan qaysi birining nomiga rasmiylashtirilgan, puli er va xotinning qaysi biri tomonidan to'langan bo'lishidan qat'i nazar, uy-joy, mashina, omonatlar umumiy mol-mulk hisoblanadi.

Aytaylik, nikohdan so'ng ayol ishlamagan, uy ishlari va bola parvarishi bilan band bo'lgan. Qonunchilikka ko'ra, er-xotindan biri uy-ro'zg'or ishlari, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Umumiy mulkka nisbatan er va xotin teng huquqli. Umumiy mulkni sotish, birovga foydalanishga berish, sovg'a qilish yoki boshqacha ko'rinishda foydalanish uchun ularning har ikkalasining roziligi kerak bo'ladi.

Masalan, da'vogar – U.T. javobgar – A.A.ga nisbatan turar-joyini umumiy mulk deb topish, ulushlarni belgilash va turar-joyga kiritib qo'yish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat etib, da'vo arizasida javobgar bilan 2022-yil 8-mayda qonuniy nikohdan o'tib turmush qurgani, o'rtalarida bir nafar voyaga yetmagan farzandi borligini, birgalikdagi turmushi davomida 2023-yilda javobgar nomiga Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidan xonadon sotib olishganini, hozirgi kunda er-xotinlik munosabatlari tugab, nikohni bekor qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etganini bildirib, nizoli turar-joyini umumiy mulk deb topish,

ulushlarini belgilash va voyaga yetmagan farzandi bilan turar-joyga kiritib qo'yishni so'ragan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining 2024-yil 16-dekabrda qiluv qaroriga asosan da'vogar U.T.ning da'vo talablari qanoatlantirilgan va nizoli xonadon taraflarning umumiy mulki deb topilib, har birining turar-joyga nisbatan ulushi 1/2 qismdan etib belgilangan va da'vogar – U.T. voyaga yetmagan farzandi bilan birga nizoli turar-joyga kiritib qo'yilgan.

– **Ma'lumki, qonunga ko'ra, oilaviy ajrimdan so'ng ota yoki ona voyaga yetmagan farzandi uchun aliment to'lashga majbur. Ammo hayotda shunday holatlar ham bo'ladiki, ota hech qayerda ishlamaydi. Bunday hollarda sud aliment undirish uchun qanday qaror chiqaradi yoxud ishlamaydigan otalardan aliment qanday undiriladi?**

– Ota-onaning o'z farzandlariga ular voyaga yetguniga qadar g'amxo'rlik qilishi, ularni moddiy tomondan ta'minlashi hamda ta'lim-tarbiya berishi axloqiy va huquqiy majburiyat sanaladi.

Huquqiy jihatdan ota-onaning farzandini moddiy ta'minlashi konstitutsiyaviy qoidalardan kelib chiqadi. Xususan, Konstitutsiyaga asosan ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'la-qonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Voyaga yetmagan bolaga aliment to'lash tartibini ota-ona o'zaro kelishgan holda belgilashga haqli. Ushbu majburiyat ixtiyoriy ravishda bajarilmasa ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi. Darhol tegishli tartibda ijro qilish uchun tuman Majburiy ijro byurosiga yuboriladi.

Oila kodeksining 99-moddasiga asosan voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment qarzining miqdori aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadi miqdoridan kelib chiqqan holda aliment undirilmagan vaqt uchun hisoblab chiqiladi. Agar aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs shu davrda ishlamagan bo'lsa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilmagan bo'lsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda aliment O'zbekiston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Savollarga Toshkent shahar sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi Jasur SIROJEV javob berdi

ERKAKLAR HAM “DEKRET”GA CHIQISHI MUMKIN

☐ “DEKRET” deganda xalqimiz ayol kishi ishlaydigan tashkilotdan bolani dunyoga keltirish va uni parvarishlash uchun chiqadigan ta’tili (dekret) hamda buning evaziga ish beruvchi tomonidan to’lanadigan nafaqa (dekret puli)ni tushunadi. Garchi, Mehnat kodeksida “dekret” so’zi biror marta qo’llanilmagan bo’lsa-da, bu yuqoridagicha talqin etiladi.

Albatta, “dekret”ga – tug’ish ta’tiliga chiqish tartibi va muddatlari tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Mehnat kodeksining 404-moddasiga muvofiq, ayolga tug’uruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug’uruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug’ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug’ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug’ish ta’tili berilib, o’rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo’lmagan miqdorda nafaqa to’lanadi. Kodeksning 405-moddasida esa homiladorlik va tug’ish ta’tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko’ra, unga bolasi ikki yoshga to’lguniga qadar bolani parvarishlash ta’tili berilishi, bu davr uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda nafaqa to’lanishi qayd etilgan. To’g’ri, ayol o’z xohishiga qarab, bola uch yoshga to’lguncha bola parvarishi ta’tilini olishi mumkin. Ammo bu paytda hech qanday ish haqi yoki nafaqalar to’lanmaydi. Shunchaki ish o’rni saqlanib qolinadi, xolos.

Takidlash joizki, ayolni bola parvarishi ta’tiliga (bola ikki yoshga va bola uch yoshga to’lguniga qadar) chiqishga majburlash yoxud talab qilish mumkin emas. Negaki, bu ta’tilga chiqish yoki chiqmaslik ayolning huquqi sanaladi. E’tiborlisi



shundaki, xalq tilida “dekret” deb ataluvchi so’z yuqorida keltirilgan tug’uruqqacha, tug’uruqdan keyingi va bola parvarishi uchun beriladigan ta’tillarning barchasini o’z ichiga oladi.

Mehnat kodeksining 405-moddasi asosida erkaklar ham “dekret”ga chiqishi mumkin. Ya’ni, bola parvarishi ta’tilidan nafaqat ona, balki, bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani haqiqatan parvarishlayotgan qarindoshlari ham, shuningdek vasiysi ham to’liq yoki qismlarga bo’lib foydalanishi mumkin. Biroq, kodeksda belgilangan tug’uruqqacha va tug’uruqdan keyingi ta’tilga faqat ayollargina chiqishadi. Bunga hech qanday izoh shart emas.

Endi haqli savol tug’ilishi tabiiy: bola parvarishi uchun ona ham, ota ham ish joyidan ta’til olsa bo’ladimi?

Shahar bedarvoza emas, deganlaridek, bu masalada ham cheklov va talablar mavjud. Agar ayol bola parvarishi uchun ish joyidan ta’til olib uyda o’tirsa, o’z-o’zidan ota bu huquqdan mahrum bo’ladi. Bordi-yu, ayol hech qayerda ishlamasa, uyda bola parvarishi bilan band bo’lgan taqdirda, ham ota va yuqorida sanalgan subyektlarda bola parvarishi ta’tiliga chiqish imkoniyati yo’qoladi.

Xo’sh ota bola parvarishi ta’tiliga chiqishni xohlasa nima qilishi kerak?

Bunday vaziyatda ayolning, ya’ni onaning ish joyidan bola parvarishi ta’tiliga chiqmaganini tasdiqlovchi ma’lumotnoma olinib, otaning ishonasiga topshirish lozim. Shu tariqa ota bola parvarishi ta’tili va ayolga berilishi mumkin. Biroq, bu hali hammasi emas. Mehnat kodeksida ilgari faqat ayollar foydalana olgan huquqlardan erkaklar ham foydalanishi mumkinligi qator normalarda o’z aksini topgan. Misol sifatida qisqartirilgan ish vaqtlarini, bolani ovqatlantirish uchun har uch soatda kamida yarim soat beriladigan tanaffuslarni va boshqa bir qator huquq va imtiyozlarni keltirish mumkin. Endi “Ish joylarida hamma yengilliklar ayollarga”, “Ayollarning shoxi bormi?” degan e’tirozlarga o’rin yo’q. Lekin muammo ulardan foydalanishda.

Sir emaski, aksariyat yurtdoshlarimizda yon atrofdagi odamlarning fikrlari, qarashlariga tayanib yashash, “Odamlar nima deydi?” kabi savollar bilan o’z hayotlarini belgilash odatiy holga aylangan. Endi aytingchi, hurmatli erkaklar, mehnat qonunchiligidagi ayollarga ajratilgan huquq va imtiyozlar sizda bor bo’lgan ayni paytda ulardan foydalanmaslik qonunchilikdagi bo’shliq emas, balki sizning yangiliklardan bexabarligingiz emasmi?

Xulosa qilib aytganda, bola parvarishi ta’tilidan uning otasi ham xuddi ona kabi foydalanishi mumkinligi mamlakatimizda gender tengligi va teng huquqlilik masalalariga yuksak e’tibor qaratilayotgani ifodasidir.

Mohinur BOBOMURODOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi

Asar bosh qahramoni – shum bolaning sarguzashtga boy hayoti nafaqat bolalar va o’smirlarni, har qanday yoshdagi kitobxonni befarq qoldirmaydi. Tinib-tinchimagan Qoravoyning ichki kechinmalari, sarguzashtlari orqali yozuvchi yumor ortida achchiq haqiqatlarni ochiq-oydin ifodalab beradi. Adib bolalar mehnati ko’p jihatdan qashshoqlik oqibatida vujudga kelishini badiiy tilda ifoda etadi. Masalan, Qoravoyning Boy ota xizmatiga yollangani, chamasini bir oy, o’n to’qqiz kun ishlab, haligacha, yigirma ikki tiyin choychaqasini ololmayotgani, xizmat haqi evaziga unga qurt yegan olmalarning berilishi o’sha davr kishilarining og’ir turmushi haqida hikoya qiladi. Asarda bola huquqlarining poymol qilinishi bilan bog’liq epizodlar juda ko’p.

Ushbu holatga bugungi kun nazari bilan qaraydigan bo’lsak, Mehnat kodeksining 20-moddasiga ko’ra, xodimning mehnatga oid huquq layoqati va muomala layoqati u o’n olti yoshga to’lgan paytidan e’tiboran bir vaqtning o’zida vujudga keladi, bundan ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar mustasno. Qonunchilikda 15 yoshda ham ota-onasining roziligi bilan ishlashga ruxsat beriladi. “Shum bola” qissasi bo’yicha qahramonimiz 13 yoshda, demak u bugungi qonunchilik bo’yicha voyaga yetmagan yosh hisoblanadi. Uning yoshidagi bolalarning majburiy mehnati taqiqlangan, u ishlashga majbur emas. Lekin, ta-

“SHUM BOLA”NING HUQUQIY TALQINI

☐ **O’ZBEK adabiyotida bolalarga bag’ishlangan asarlar juda ko’p. Lekin hech bir asar “Shum bola” qissasining o’rnini bosa olmasa kerak. Murg’ak bola boshidan kechirgan ko’rguliklarni ifoda etgan ushbu asar xalqchilligi, samimiyati, haqqoniyligi bilan diqqatga sazovor. Xalq e’tirof etgan bu asar jahonning eng yaxshi bolalar adabiyoti yuztalik reytingidan munosib o’rin egallagani ham bejiz emas. Akademik shoir G’afur G’ulomning 1936-yilda yozilgan “Shum bola” qissasi bir necha marta qayta nashr etilgan, ko’pgina xorijiy tillarga tarjima qilingan.**

rixdan yaxshi bilamizki, o’sha davrdagi ijtimoiy muhit, qiyinchiliklar ishlashga majbur qilgan. Amaldagi Mehnat kodeksi bo’yicha esa voyaga yetmaganlar mehnatiga alohida e’tibor beriladi. Ularga qo’shimcha imkoniyatlar va imtiyozlar yaratilgan.

Qissa yozilgan davrda nafaqat bolalar mehnati, balki, ularning munosib tarbiya olish, sog’lom turmush kechirish, ta’lim olish kabi huquqlari ta’minlanmagan. O’sha davrda yurtimizning Chor Rossiyasiga qaramligi boshimizdan shunday kunlarni kechirishga sabab bo’ldi. Mustaqillik bizga nafaqat erkinlik berdi, balki, xalqaro darajada mustahkamlangan munosib hayot kechirish, ta’lim olish, mehnat qilish kabi huquqlarimizni amalga oshirishimizga ham sababchi bo’ldi.

Konstitutsiyaning 77-moddasiga ko’ra, ota-onalar va ularning o’rnini bosuvchi shaxslar o’z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi,

ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog’lom, to’laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g’amxo’rlik qilishga majburlirlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari, ayniqsa, bola huquqlari sohasidagi islohotlar yangi bosqichga chiqdi. Xususan, majburiy mehnat va bolalar mehnatini tugatish bo’yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Majburiy mehnatga barham berishga doir bir qator qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

Xulosa o’rnida aytganda, adibning “Shum bola” qissasida davrning ijtimoiy-huquqiy muammolari bola tili-dan g’oyat hayotiy va ta’sirchan yoritilgani uchun ham mazkur asar ke-lajak avlod uchun tarbiyaviy maktab vazifasini o’tab, avloddan-avlodga o’tib kelmoqda.

Nargiza AXTAMOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi

☐ E’LON

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi-ning 2025-yil 4-martdagi 64-um sonli buyrug’i bilan “ULUG’-DUR” advokatlik byurosi advokati Umarov Ulug’bek Usmonaliyevichning boshqarma tomonidan 2024-yil 12-iyul kuni berilgan advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi L-70665755 raqamli litsenziya va advokatlik maqomi jinoyat ishlari bo’yicha Yangiyo’l tuman sudining 2024-yil 14-oktabrdagi ajrimiga asosan;

“RAXIMOV KUDRAT NORMATOVICH” advokatlik byurosi advokati Raximov Kudrat Narmatovichning Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2023-yil 9-oktabr kuni berilgan advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi L-70661389 raqamli litsenziya va advokatlik maqomi jinoyat ishlari bo’yicha Nurafshon shahar sudining 2025-yil 24-yanvardagi ajrimiga asosan;

“XIMOYACHI KENJAYEV” advokatlik byurosi advokati Kenjayev Xushbaxt Jurayevichning Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2023-yil 31-iyul kuni berilgan advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi L-70665789 raqamli litsenziya va advokatlik maqomi jinoyat ishlari bo’yicha Nurafshon shahar sudining 2025-yil 7-yanvardagi ajrimiga asosan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo’llanilganligi sababli tergov organi tomonidan ularga nisbatan e’lon qilingan ayblov bo’yicha sudning hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi to’xtatildi.

8 HAYOT HAQIQATLARI

Ko'ngil guli



Roziya xola halloslab xonasiga kirdi. Sandiq ustida yig'ib qo'yilgan ko'rpachalarni yiqdi. Hatlab o'tib shoshilganicha sandiq ichidan ancha yillar ilgari tiktirgan maydagul chit ko'ylagini topdi. Ko'zguda ro'molini qayta-qayta o'rab ko'rdi. Eski g'aldonidan surma topib ko'zlariga

qo'ydi. U hozirdan o'zini ancha tetik his qila boshlagandi. Hammasiga sabab, kechki ovqatdan so'ng o'g'lining ilk marta, "Mashinada shaharni aylantirib kelaymi?", degan taklifi edi. Ko'zgudagi aksiga boqib ko'rinishidan ko'ngli to'lmaganday bo'ldi va vazadagi rayhondan bir shox sindirib chakkasiga qistirdi, so'ng nim tabassum qilib o'ziga o'zi, "Endi hammasi joyida, chiroylisan, Roziya" deb tashqariga chiqdi. Ko'chada o'g'li Zarif mashinasini qizdirib, xotini va bolalarining imillashidan norozilar-cha turar edi. Shu pallada onasiga ko'zi tushdi. Uning to'satdan bergan savoli, Roziyaning chakkasidagi rayonini bir onda so'ltidi:

– Ha, oyi, qaerga otlandingiz?

ARJUMANDBEGIM

Farosat



– Qizim, otang tengi insonga joy bermaslik yaxshi ish emasligini bilmaysanmi? – so'radi spirtli ichimlik ichgani sezilib turgan amaki. Qiz sekin o'rnidan turib o'rinni bo'shatdi. Amaki o'ringa o'tirdi. O'rindiq tepasida homiladorlar uchun maxsus o'rin deb yozilgandi. Qiz sumkasi bilan qornini berkitishga urindi.

Nuriddin ZIYO

Aybdor



Avtobus universitet yonida to'xtadi. Darsga kech qolganini sezgan Tohir shoshilib avtobusdan tushdi. Tushdi-yu, birovga borib urildi.

– Ko'zingizga qarasangiz bo'lmaydimi, – o'shqirdi Tohir asabiylashib.

– Kechirasiz uzr, aybdorman!

Haligi odam yerni paypaslagan qora ko'zoynagini izlardi...

Elbek TILAVOV

REKLAMA

AKSIYADORLIK TIJORAT “AGROBANK” CHUST FILIALI JAMOASI

barcha yurtdoshlarimizni,
bank mijozlarini, bobodehqonu fermerlarni
yangilanish va yasharish ayyomi–
NAVRO'ZI olam bilan muborakbod etadi.

**Yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik barqaror bo'lsin!
Dasturxonimizdan to'kin-sochinlik arimasin!**

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sherzod Abdullayev
Yorбек Iskandarov

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Gulbahor Ortixovjayevo

Sahifalovchi-dizayner
Ma'ruf Abdug'aniyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 1 403
Buyurtma – 699

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5